



CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

Asosiy tarkib



Yirik korxonalar



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari


Dastlabki ma'lumotlar

Namangan viloyati bo'yicha 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida chakana savdo tovar 10 492,8 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan 3,0 % ga ko'paygan. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 1 019,8 mlrd. So'mni (o'sish sur'ati 81,0 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 9 473,0 mlrd. so'mni (6,1 % ga ko'paygan. shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 1 248,0 mlrd. so'mni (15,9 % ga kamaydi) tashkil etdi.

O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



Tarkibiy qism, ulushlarda







UMUMIY MA'LUMOT

Namangan viloyati bo'yicha 2020- yilning yanvar-noyabr toylarida chakana savdo tovar aylanmasi **10 492,8** mlrd. so'm ni tashkil etib, 2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan **103,0** % ni tashkil etdi.

Namangan viloyati chakana savdo tovar aylanmasida barcha viloyatlarda kamayish sur'atlari kuzatildi. Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga **90,3** % va yirik korxonalar hissasiga **9,7** % to'g'ri keldi.



YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2020- yil yanvar-noyabr oylari yakuniga ko'ra, 9 473,0 mlrd.so'm ni tashkil etib, 2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan 6,1% ga ko'paygan. Jami chakana savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa 90,3 % ni tashkil etdi.


Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Kosonsoy (99,1 %), Mingbuloq (98,2 %), Yangiqo'rg'on (97,4 %), Namangan (96,2 %), Norin (94,9 %), Pop va To'raqo'rg'on (93,6 %) tumanlarida yuqori bo'lgan.





2019- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan viloyatning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining ko'payish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori ko'rsatkichlar Uychi (117,8 %) va Chust (111,3 %) tumanlarida qayd etildi.



Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'atlari, foizda



	Jami, mlrd. so'm	2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2019- yil yanvar- noyabr oylariga nisbatan, foizda
Namangan viloyati	10 492,8	103,0	1019,8	81,0	9 473,0	106,1
Namangan.sh	4 459,1	100,4	370,9	77,8	4 088,2	103,1
tumanlar:						
Mingbuloq	242,1	103,9	4,3	124,1	237,8	103,5
Kosonsoy	646,7	103,4	5,7	110,7	641,0	103,4
Namangan	346,9	109,1	13,2	115,4	333,7	108,9
Norin	634,2	100,9	32,2	99,5	602,0	101,0
Pop	747,3	102,8	47,6	55,1	699,7	109,3
To'raqo'rg'on	566,8	106,0	36,2	76,5	530,7	108,8
Uychi	429,9	117,8	63,8	135,5	366,1	115,2
Uchqo'rg'on	482,8	100,2	28,8	27,1	454,0	121,0
Chortoq	458,3	100,1	48,9	45,9	409,4	116,6
Chust	863,5	111,3	352,2	108,8	511,2	113,1
Yangiqo'rg'on	615,2	102,6	15,9	130,5	599,3	102,0

Yirik korxonalar

Eng yuqori ulushga
ega hududlar, foizda





Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2019- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 19,0 % ga kamaydi va **1 019,8** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **9,7%** ulushiga to'g'ri keladi.



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari


Eng yuqori ulushga
ega hududlar, foizda




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **9 473,0** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **6,1 %** ga ko'paygan. viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **90,3%** ni tashkil etdi.



**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK
BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING
HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI (foizda)**



Tahliliy natijalarga ko`ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo`yicha Kosonsoy (99,1 %), Mingbuloq (98,2 %) Yangiqo`rg`on (97,4 %), Namangan (96,2 %), Norin (94,9 %) va Uchqo`rg`on tumanlari (94,0 %) yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 9,7 % ni tashkil etib, eng katta ulush Chust (40,8 %), Uychi (14,8 %) Chortoq (10,7 %), tumanlarida va Namangan.sh (8,3%) kuzatildi.



**NAMANGAN VILOYATI BO'YICHA AHOLI JON
BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR
AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2020- yil yanvar-noyabr oylari holatiga ko'ra o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **3 705,6** ming so'm (2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan **0,9** % ga ko'paygan). Uychi (115,3 %), Chust (109,3 %), Namangan (106,8 %) To'raqo'rg'on (103,8 %), Mingbuloq (101,7 %) tumanlari va boshqa barcha hududlarda aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi ko'rsatkichlarida kamayish sur'atlari kuzatildi.

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqorisi Namangan shahri (7 063,4 ming so'm), Norin (3 859,9 ming so'm) va Pop (3 392,4 ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.




	Hajm, ming so'm	2019-yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan, % da
Namangan viloyati	3 705,6	100,9
Namangan.sh	7 063,4	98,1
tumanlar:		
Mingbuloq	1 910,8	101,7
Kosonsoy	3 078,0	101,2
Namangan	1 927,3	106,8
Norin	3 859,9	99,1
Pop	3 392,4	101,1
To'raqo'rg'on	2 494,9	103,8
Uychi	2 009,8	115,3
Uchqo'rg'on	2 795,5	98,3
Chortoq	2 293,7	98,2
Chust	3 241,3	109,3
Yangiqo'rg'on	2 810,5	100,5



**UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK
KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O‘SISH SUR‘ATLARI**

2020- yilning yanvar-noyabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi **1,4%** ni tashkil etib, **145,4** mlrd. so‘mga yetdi va 2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan **5,4%** ga kamaydi. Bunda jami savdo aylanmasining **88,6%** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

**Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasining
o‘shish sur‘atlari, foizda**



	Jami, mlrd. so‘m	2019- yil yanvar- noyabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so‘m	2019- yil yanvar- noyabr oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so‘m	2019- yil yanvar- noyabr oylariga nisbatan, foizda
Namangan viloyati	145,4	94,6	16,6	111,0	128,8	92,9
Namangan.sh	94,7	99,9	15,7	112,0	79,0	97,8
tumanlar:						
Mingbuloq	2,9	87,9	-		2,9	87,9
Kosonsoy	3,3	93,1	-		3,3	93,1
Namangan	6,5	87,4	0,9	172,5	5,6	81,3
Norin	3,2	92,7	-		3,2	92,7
Pop	7,0	85,6	-		7,0	85,6
To‘raqo‘rg‘on	5,0	98,0	-		5,0	98,0
Uychi	2,4	90,6	0,1	108,9	2,3	90,2
Uchqo‘rg‘on	5,0	93,0	-		5,0	93,0
Chortoq	3,7	87,6	-		3,7	87,6
Chust	9,8	72,7	-		9,8	74,9
Yangiqo‘rg‘on	1,9	91,7	-		1,9	91,7

ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

Asosiy tarkib, foizda




Yirik korxonalar




Mikrofirma va kichik korxonalar

Namangan viloyati bo'yicha 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **3 144,8** mlrd. so'm ni tashkil etib, 2019-yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan **1,9 %** ga ko'paygan. Shu jumladan, yirik korxonalarining savdo tovar aylanmasi **633,0** mlrd. so'mni (**42,0 %** ga kamaydi), mikrofirmalar va kichik biznes subyektlarining savdo tovar aylanmasi **2 511,8** mlrd. so'mni (**25,9%** ga ko'paygan).


O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



Eng yuqori ulushga ega hududlar






Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega yirik korxonalar Norin (5 108,9 m.), Uychi (581,1 m.), Uchqo'rg'on (131,1m), tumanlarida kuzatildi.


Ulgurji tovar aylanmasida nisbatan yuqori o'zgarish sur'atlari Chust ,Uychi (3,0 m), Uchqo'rg'on (2,8 m), viloyatlarida qayd etildi.

Ulgurji savdo aylanmasi o'sish sur'atlari, foizda




	Jami, mlrd. so'm	2019- yil yanvar- noyabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2019- yil yanvar- noyabr oylariga nisbatan, foizda	Mikrofirma va kichik korxonalar, mlrd. so'm	2019- yil yanvar- noyabr oylariga nisbatan, foizda
Namangan viloyati	3 144,8	101,9	633,0	58,0	2 511,8	125,9
Namangan.sh	1 350,6	100,8	206,9	36,3	1 143,6	148,6
tumanlar:						
Mingbuloq	34,2	107,6	0,5	111,9	33,7	107,5
Kosonsoy	300,1	103,2	0,5	110,9	299,6	103,1
Namangan	122,2	111,9	1,4	174,9	120,7	111,4
Norin	160,2	131,3	23,0	5 108,9m	137,2	112,5
Pop	145,2	113,8	0,4	68,9	144,7	114,1
To'raqo'rg'on	234,2	39,2	73,7	15,8	160,5	123,8
Uychi	158,4	3,0m	92,0	581,1m	66,4	124,8
Uchqo'rg'on	68,4	2,8m	40,1	131,1m	28,3	116,0
Chortoq	190,9	127,0	40,5	2,1m	150,5	115,1
Chust	192,4	3,0m	154,0	5,1m	38,4	110,8
Yangiqo'rg'on	188,2	108,5	0,0	0,0	188,2	108,5

YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2020- yil yanvar-noyabr oylari yakuniga ko'ra, **2 511,8** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan **25,9** % ga kupaygan. Jami ulgurji savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa **79,9** % ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Yangiqo'rg'on (100,0%), Kosonsoy (99,8 %), Pop (99,7 %), Namangan t (98,8%), Mingbuloq (98,5%) tumanlarida yuqori bo'lgan. Eng past ulush esa Chust (20,0 %) tumaniga to'g'ri keldi.



Tashqi iqtisodiy faoliyat va
savdo statistikasi
boshqarmasi
Tel : (69)-227-84-95